

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILNI  
O'RGATISHDA NUTQ FAOLIYATINING PSIXOLOGIK JIHATLARI**  
**Xudoyqulova Gavhar Sulton qizi, 1-bosqich magistri**  
**Jasurova Nazira Xasan qizi, 1-bosqich magistri**  
**Tojimurodova Sevara, 1-bosqich magistri**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

[herbyberk@gmail.com](mailto:herbyberk@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatishda og'zaki nutq faoliyatini rivojlantirishning psixologik jihatlari yoritilgan. Bolalar nutqini rivojlantirishning metodologik masalalari va ularning yo'naliislari, hamda psixologik yondashuv asosida bolalarga chet tilini o'qitishning metodlari va texnologiyalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutq, nutqiy faollik, muloqot, bilim, tarbiya, nutqning grammatik tomoni, o'qituvchi, metodika, texnika, vaziyat, nutqni o'stirish.

**Аннотация:** В статье описаны психологические аспекты развития устной речевой деятельности при обучении иностранному языку учащихся начальной школы. Раскрыты методические вопросы развития речи детей и их направления, а также методы и технологии обучения детей иностранному языку на основе психологического подхода.

**Ключевые слова:** устная речь, речевая деятельность, общение, знание, образование, грамматические стороны речи, учитель, методика, техника, ситуация, развитие речи.

**Abstracts:** The article describes the psychological aspects of the development of oral speech teaching a foreign language to elementary school students. Methodological issues of children's speech development and their directions, as well as methods and technologies of teaching children a foreign language based on a psychological approach are revealed.

**Keywords:** oral speech, speech activity, communication, grammatical aspects of speech, knowledge, upbringing.

Hozirgi dunyo globallashuvi jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'ganishni taqozo qilmoqda. Tadqiqotlar hozirgi kunda ushbu jarayonni erta yoshda, asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida boshlash yaxshi samara berishini ko'rsatmoqda va amalda qo'llashmoqda.

Yurtimizda ham ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilib, xorijiy tillarni o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va oliygohlari bilan hamkorlikda yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqarilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga ona tilini o'rgatish bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'rgatish, shu nuqtayi nazardan ingliz tilini o'rgatishdir. O'quvchini ingliz tiliga qiziqtira olish, ingliz tilida nutqni rivojlantirish, nutqiy munosabatga muomalaga o'rgatishdir.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF- 4947-sonli, 2019-

yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Bolalar nutqini rivojlantirishning metodik masalalarini ishonchli tarzda psixolingvistik asoslash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga xos jihatlar hisoblanadi. F.A. Saxin va O.S.Ushakovlarning tasnifidan foydalangan holda bolalar nutqini psixologik -pedagogik tadqiq qilishni 3ta yo'naliishga ajratish mumkin.

• Tuzilmaviy -til tizimining turli tuzilmaviy darajalarini; fonetik, leksik, grammatik darajalarini shakllantirish;

• Funksional- kommunikativ faoliyatda tilni egallah shakllantirish;

• Kognitiv --til va nutq hodisalarini oddiy anglashni shakllantirish;

Nutqqqa oid zamonaviy tadqiqotlar tizimli yondashuvga ega, bu «U yaxlit bir tizim sifatida mavjud bo'lgan ko'plab tashqi va ichki munosabatlar hodisasini o'rganishda namoyon bo'ladi». (B.F. Lomov)

Nutq- kishi faoliyatining turi, til vositaslari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrini his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq mifik muktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish quroli hisoblanadi .

Psixolingvistik adabiyotlarda yozilishicha, haqiqiy ikki tillilik faqat odam hech bo'limganda bitta har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo'lgan taqdirdagina qodir bo'lgan taqdirdagina rivojlanadi

Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sababidir. Shuni e'tiborga olish kerakki , 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'-nosini tishunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli.

Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1.Qo'shiq va she'rler orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'limgan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish; Bunga misol qilib , bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

2.Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar ;

3.Multfilmlar;

Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramon-larining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va samarali metod hisoblanadi.

4.Rol ijro etish (role play) metodi-ushbu metod orqali o'qituvchi biror ma'lumotni,masalan, hayvon yoki qush-larning nomlarini o'rganayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi,mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi havvon ekanligini og'zaki aytib berishi mumkin. Bu metod bolaning xorijiy tilda og'zaki nutqi yaxshi rivojlanishiga katta yordam beradi.

#### 5. Mavzuga oid muhit;

O'qituvchi mavzuga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: travelling, birthday, in kitchen va boshqalar. Travelling(sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyuştirishi, sayohatga qanday vositalar orqali ( foot, bicycle, avtomobile, train, boat, airplane)borish mumkinligi,qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara ,England) mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini,til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Natijalarga to'xtaladigan bo'lsak, bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli.Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytishga harakat qilsa, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilish lozim. Shundagina bolalar so'zlarni tez o'rganishi mumkin.

-amaliy mashg'ulotlar (mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni ta'tib ko'rish,gullarni hidlab ko'rish) . Bu jumlanı amaliyatchi psixologlarning fikri bilan izohlash mumkin: " Bolalarning esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto hidlash va ta'm bilish organlaririning esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak". Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani ta'tib ko'rishi paytida uning rangi qizil (red) yoki yashil (green), ta'mi shirin (tasty) yoki katta(big), kichik (small) shakli haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bunday metoddan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatga xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi.

-imo-ishoralar,yuz ifodalari orqali, o'qituvchi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda ,masalan, bu yoqqa kel(come here), kitobni och (open the book), turing(stand up), doskaga qarang(look at the blackboard) kabi gaplarda imo-ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi.

-ko'rgazmali qurollar, plakatlar,orqali.

-ko'zga ko'rindigan va kundalik ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish.Masalan, eshik (door), kitob (book), stol(table) , doska (blackboard), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amaliyotda ko'p qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

-yangiliklar orqali;

Bilamizki, bolalar qiziquvchan ular bir xillikdan tez zerikadi. SHuning uchun o'qituvchi doimo bir xil usullardan foydalangan holda dars o'tishi emas, balki bunday usullarni o'zgartirib, yangilab dars o'tishi lozim. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, balki ularning yoshi, intilishi va harakatiga qarab qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali va foydali metodlardan, texnologiyalardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun, og'zaki nutqining yaxshi rivojlanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobi ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm-fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishga turki bo'lgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishda buyuk bobo-kalonlarimizdan o'rnak olgan holda, o'quvchilarga til o'rgatishda psixologik yondashib, har xil metod va texnologiyalardan foydalangan holda bilim bermog'imiz darkor.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi nutqini rivojlantirish" Sh. Oripova. Maqola (2020)
- 2."Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari" M.Jo'rayeva. Maqola (2022)
- 3." Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi" M.Boboqulova. Maqola. "Science and innovation" international scientific journal (2022) cyberleninka.ru
4. J.Jalolov "Ingliz tilini o'qitish metodlari". O'qituvchi nashriyoti. Toshkent. To'xtasinova, Sobirjonova(2022)
- 5."Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining asosiy nazariy matni" O'quv uslubiy majmua. Library.samdu.uz.
6. Қаршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологияк жихатлари //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. 2022. Т. 2. №. 4.
7. Қаршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установкаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. 2022.Т. 2. №. 4.
8. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2021. Т. 1. №. 7. С. 54-59.
9. Karshibayeva G. Диагностика суициального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. 2021. №. 22.С. 84-89.

10. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Jornal.// Vol 10 Issue03,March 2021 501-505 p.
11. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
12. Karshibayeva, G.Innovations in Applied Sciences | ISSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
13. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | ISSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
14. Каршибаева Г.А, Валиева Ч. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в xxI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.
15. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
16. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А.Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
18. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма.“Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.